


**FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2020-yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1271,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 23,4 mln. AQSh dollariga kamaydi yoki 98,2 % ga teng bo'ldi.



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 495,4 mln. AQSh dollariga (6,8 % ga kamaydi) va import hajmi 776,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sura'ti 101,7 %) yetdi. Hisobot davrida – 280,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**FARG'ONA VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN
DAVLATLAR**
(2020 yil yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

Top-8 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, %da
Xitoy Xalq Respublikasi	316,4	64,9	251,5	24,9
Rossiya Federatsiyasi	286,6	135,4	151,2	22,5
Qozog'iston Respublikasi	187,5	28,3	159,3	14,7
Qirg'iziston Respublikasi	144,2	114,8	29,4	11,3
Turkiya Respublikasi	65,4	34,4	31,0	5,1
Turkmaniston Respublikasi	30,7	4,7	26,3	2,4
Tojikiston Respublikasi	28,5	12,3	16,2	2,2

Top-8 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, %da
Koreya Respublikasi	26,6	7,1	19,5	2,1

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI OYLIK DINAMIKASI
(mln. AQSH dollari)





Farg'ona viloyatning, jahonning 77 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (24,9 %), Rossiya Federatsiyasida (22,5 %), Qozog'istonda (14,7 %), Qirg'iziston Respublikasida (11,3 %), Turkiya Respublikasida (5,1 %), Turkmaniston Respublikasida (2,4 %), Tojikiston Respublikasida (2,2 %) va Koreya Respublikasida (2,1 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, XXR (316,4 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (286,6 mln. AQSh dollari), Qozog'iston Respublikasi (187,5 mln. AQSh dollari), Qirg'iziston Respublikasi (144,2 mln. AQSh dollari), Turkiya Respublikasi (65,4 mln. AQSh dollari), Turkmaniston

Respublikasi (30,7 mln. AQSh dollari) va Tojikiston Respublikasi (28,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 13 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI
DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	300,5	367,8	316,4
Eksport	105,1	96,4	64,9
Import	195,4	271,4	251,5
Saldo	-90,3	-175,0	-186,6
Rossiya Federatsiyasi	324,0	260,3	286,6
Eksport	120,5	121,6	135,4
Import	203,5	138,7	151,2
Saldo	-83	-17,2	-15,8
Qozog'iston	244,3	148,3	187,6
Eksport	68,8	46,4	28,3
Import	175,5	101,9	159,3
Saldo	-106,7	-55,5	-131
Qirg'iziston	70,3	141,6	144,2
Eksport	35,7	106,0	114,8
Import	34,6	35,6	29,4
Saldo	1,1	70,4	85,4
Turkiya	49,8	92,3	65,4
Eksport	29,8	54,3	34,4
Import	20,0	38,0	31,0
Saldo	9	16,3	3,4



Turkmaniston	92,6	78,6	30,7
Eksport	0,5	0,8	4,7
Import	8,8	7,1	26,0
Saldo	-8,3	-6,3	-21,3
Tojikiston	16,0	35,3	28,5
Eksport	6,5	14,1	12,3
Import	9,5	21,2	16,1
Saldo	-3	-7,1	-3,8
Koreya Respublikasi	28,4	29,6	26,6
Eksport	5,1	4,8	7,1
Import	23,3	24,8	19,5
Saldo	-18,2	-20	-12,4
Polsha	19,9	21,9	22,3
Eksport	18,2	15,9	21,0
Import	1,7	6,0	1,3
Saldo	16,5	9,9	19,7
Germaniya	25,9	23,6	18,5
Eksport	1,7	0,8	1,6
Import	24,2	22,8	16,9
Saldo	-22,5	-22	-15,3
Niderlandiya	3,8	2,1	15,1
Eksport	0,05	-	0,02
Import	3,7	2,1	15,1
Saldo	-3,6	-2,1	-15,1
Afg'oniston	4,1	14,0	12,8
Eksport	4,1	14,0	12,8
Import			
Saldo	4,1	14,0	12,8
Misr	2,5	11,6	9,3
Eksport	2,5	11,2	9,3
Import	0,03	0,5	0,1



Saldo	2,5	10,7	9,2
Bangladesh	17,2	10,6	8,8
Eksport	17,2	10,6	8,8
Import			0,01
Saldo	17,2	10,6	8,8
Hindiston	12,6	3,4	8,6
Eksport	0,1	0,2	1,4
Import	12,5	3,1	7,3
Saldo	-12,4	-2,9	-5,9
Italiya	6,0	5,0	8,2
Eksport	0,4	0,7	0,4
Import	5,5	4,3	7,9
Saldo	-5,1	-3,6	-7,5
Ukraina	8,2	11,6	7,1
Eksport	4,0	7,3	4,8
Import	4,2	4,3	2,3
Saldo	-0,2	3,0	2,5
Litva	6,4	10,1	6,7
Eksport	1,9	0,5	1,3
Import	4,6	9,6	5,5
Saldo	-2,7	-9,1	-4,2
Belarus	5,5	4,6	5,9
Eksport	3,0	1,8	3,6
Import	2,5	2,8	2,3
Saldo	0,5	-1,0	1,3
Singapur	1,7	1,8	5,6
Eksport	-	-	5,6
Import	1,7	1,8	-
Saldo	-1,7	-1,8	5,6

FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLAR DINAMIKASI*(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-noyabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan 13,7 % ga oshgan.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2020-yil yanvar-noyabr oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan kamaydi (-15,6 % ga) va jami TSA dagi ulushi 45,4 %ni tashkil etdi.

FARG'ONA VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 630 tani tashkil etib, ular tomonidan 495,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,9 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (44,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,7 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (7,1 %) hamda kimyoviy vositalar (2,4 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020 yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)





FARG'ONA VILOYATINING EKSPORTI OYLIK DINAMIKASI
(mln. AQSH dollari)



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2020 yil yanvar-noyabr)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			MDH davlatlari			Boshqa davlatlari		
	Jami	O' tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	Jami	O' tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	Jami	O' tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da
Jami eksport	495,4	93,2	100	305,6	102,4	100	189,7	81,4	100
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	186,8	86,1	37,7	172,4	90,0	56,4	14,4	56,6	7,6

Ichimliklar va tamaki	0,4	4,5 m	0,1	0,04	84,5	0,0	0,3	11,8 m	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,0	149,6	7,1	23,8	156,7	7,8	11,1	136,3	5,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,0	30,0	1,2	4,8	46,6	1,6	1,2	12,4	0,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	196,9	0,1	0,5	180,5	0,2	0,5	100	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,8	372,1	2,4	10,9	3,4 m	3,6	1,0	79 m	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	219,3	88,5	44,3	62,7	101,4	20,5	156,6	84,2	82,5
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1,0	161,8	0,2	0,9	174,9	0,3	0,1	108,8	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	26,6	2,5 m	5,4	26,0	2,5 m	8,4	0,6	116,7	0,3
Xizmatlar	7,8	90,2	1,5	3,6	64,2	1,2	4,2	136,0	2,3

Boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarga to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-noyabriga nisbatan, mashina va asbob-uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlaridan tashqari barcha tovar guruhlarida pasayish kuzatildi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr,%da)

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,7	40,8	37,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,1	4,4	7,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,3	3,8	1,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,5	0,6	2,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	56,5	46,6	44,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,1	0,1	0,2
Turli xil tayyor va boshqa buyumlar	2,0	2,0	5,4
Xizmatlar	1,8	1,6	1,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
(2020 yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019-yilning mos davriga nisbatan, %da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	173,2	89,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	11,0	161,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,4	53,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,9	12,3
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,01	67 m
Ichimliklar va tamaki		

Ichimliklar	0,4	4,3 m
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,01	12,2 m
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	10,0	135,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	16,1	2,1 m
Metall rudalari va metall parchalari	3,1	113,5
Qog'oz massasi va makulatura	2,6	86,3
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,6	121,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5,9	29,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,6	196,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,3	2,0 m
Organik kimyo moddalari	0,3	342,7
O'g'itlar	9,5	3,5 m
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,0	100
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	206,8	85,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar	2,4	12,2 m
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	8,6	189,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,6	170,7
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,2	209,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15,8	2,9 m
Poyabzal	5,3	186,7
Har xil tayyor buyumlar	5,3	2,0 m
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	6,3	102,3
Safarlar (turizm)	0,2	26,7
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	0,1	115,4
Moliyaviy xizmatlari	1,2	77,7



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLAR (2020 –yil yanvar-noyabr)

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-noyabridan 52,6 % dan 2020-yil yanvar-noyabriga nisbatan 61,7 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 47,4 % dan 38,3 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-noyabriga oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (27,3 %), Q'rg'iziston Respublikasi (23,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,1 %), Qozog'iston (5,7 %), Turkiya (6,9 %), Polsha (4,3 %), Afg'oniston (2,6 %), Tojikiston (2,5 %) va Misr (1,9 %) davlatlarida saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,4 foizni tashkil etmoqda.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2020-yil yanvar-noyabr, % da)

Rossiya Federatsiyasi



27,3 %

Q'rg'iz Respyblikasi



23,2 %

Xitoy Xalq Respublikasi



13,1 %



Turkiya

6,9 %



Q'ozog'iston

5,7 %



Polsha

4,3 %



Afg'aniston

2,6 %

Tovarlarni va xizmatlarni eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikaning ikkinchi pog'onaga tushishi hisobiga, Qirg'iziston Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni qo'lga oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiasini 2019-yilning mos davriga nisbatan 58 davlatdan 63 davlatga ko'paytdi.



FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-noyabr)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.

Rossiya Federatsiyasi	121,6	135,4	100,9	111,4	1	1
Qirg'iziston Respublikasi	105,9	297,1	114,8	108,3	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	96,4	91,7	65,0	67,3	3	3
Turkiya	54,3	34,4	182,1	63,3	4	4
Qozog'iston	46,4	28,3	67,4	60,9	5	5
Polsha	16,0	21,0	87,5	132,2	6	6
Afg'oniston	14,0	12,8	3,4 m	92,3	8	7
Tojikiston	14,1	12,3	2,1 m	87,5	7	8
Misr	11,2	9,2	4,5 m	82,2	9	9
Bangladesh	10,6	8,8	61,7	82,8	10	10
Koreya Respublikasi	4,8	7,1	95,3	146,6	13	11
Singapur	-	5,5	-	100	20	12
Ukraina	7,3	4,8	181,1	65,8	11	13
Turkmaniston	0,8	4,7	169,1	5,9 p	19	14
Belarus Respublikasi	7,3	4,8	181,1	65,8	11	13
Pokistan	0,8	4,7	169,1	5,9 p	19	14
Vyetnam	5,3	2,2	117,1	41,7	12	17
Portugaliya	1,6	2,0	101,1	126,9	16	18
Marokash	2,8	1,9	202,6	66,4	14	19
Chehiya	1,3	1,7	69,7	137,4	17	20


Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil sanoat va shunga o'xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2020 – yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)

Xizmatlar eksporti hajmi 7,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,5 %ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (79,6 %) va moliyaviy (15,4 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (1,9 %), safarlar bilan bog'liq

xizmatlar (3,1 %) ni tashkil etgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 174,4 mln. dollar qiymatli 191,4 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 18,9 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 9,8 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 28,5 mln. AQSh dollariga teng 54,6 ming tona sabzavot, shuningdek 103,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 93,6 ming tona meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 35,2 % ni tashkil etdi.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (41,8 %), Qirg'iziston Respublikasi (42,5 %), va Qozog'iston (12,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-noyabr)

Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da

Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	84,4	55,6	28,7	94,6	73,2	41,8
Qirg'iziston Respublikasi	50,3	87,5	45,2	51,2	74,2	42,5
Qozog'iston	73,4	40,6	21,0	38,2	21,4	12,2
Afg'oniston	1,4	1,1	0,6	0,7	0,3	0,2
Belarus	0,4	0,2	0,1	0,5	0,4	0,2
XXR	0,3	1,3	0,7	0,2	0,3	0,2
Pokiston	1,3	1,0	0,5	0,3	1,0	0,6
Tojikiston	0,6	0,5	0,3	0,2	0,1	0,1
Ukraina	7,9	3,4	1,8	3,6	1,7	1,0
Turkiya	0,9	0,7	0,4	0,04	0,05	0,0
Koreya Respublikasi	0,7	0,7	0,4	0,5	1,2	0,7
Litva	0,06	0,03	0,0	0,3	0,1	0,1
Germaniya	0,2	0,1	0,1	0,4	0,2	0,1
BAA	0,06	0,1	0,1	0,07	0,2	0,1
Turkmaniston	0,4	0,06	0,0	0,05	0,03	0,0
Mongoliya	-	-	-	0,09	0,1	0,1
Bo'shqalar	1,6	0,8	0,1	0,6	0,5	0,1

*-qiymat ifodasidan

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (74,4 %), paxta gazlamalari (9,9 %) hamda tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (6,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 188 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 45 ta davlatiga eksport qilindi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining kamayishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 227,8 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,0 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 8,6 %ga kamaydi.

**TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Tovar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Paxtadan yigirilgan ip	223,0	210,1	169,4
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	4,4	5,3	15,7
Gilamlar	0,05	0,05	0,1
Naqshli mato	1,8	4,0	5,4

Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	3,2	3,1	3,8
Paxtadan gazlamalar	20,8	17,4	22,5
Ipak va ipak mahsulotlari	3,4	6,1	6,4
Paxta mahsulotlari	2,3	2,5	3,8
Boshqalar	0,7	0,7	0,8

Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari najjasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (63,0 mln. AQSh dollari, ulushi 27,6 %), Rossiya Federatsiyasi (51,4 mln. AQSh dollari, uluhi 22,7 %) va Turkiya (31,6 mln.AQSh dollari, ulushi 13,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
XXR	103,4	94,0	63,0
Rossiya Federatsiyasi	61,4	49,1	51,4
Turkiya	27,6	40,0	31,6
Polsha	14,2	13,0	20,6
Misr	2,5	11,2	9,2
Bangladesh	17,2	10,6	8,7
Qirg'iziston Respublikasi	2,0	1,8	6,7

Singapur			5,5
Koreya Respublikasi	4,8	4,0	4,1
Ukraina	2,4	3,3	2,8
Belarus Respublikasi	2,9	1,6	2,1
Portugaliya	1,5	1,6	1,9
Marokash	1,4	2,8	1,9
Cehiya	1,8	1,2	1,7
Belgiya	1,6	2,1	1,7
Hindiston		0,2	1,3
Germaniya	1,6	0,6	1,3
Qozog'iston Respublikasi	1,0	1,2	1,3


FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI ***(2020-yil yanvar-noyabr)***

2020-yil yanvar-noyabr oylarida import hajmi 776,3 mln. AQSh dollarini yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 101,7 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va asbob uskunalari (31,5 %), mineral yoqilg'ini, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (22,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,5 %) hamda kimyoviy vositalar (7,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO' LIM BO'YICHA IMPORT TARKIBI ***(2020-yil, yanvar-noyabr, ulushi,%da)***



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 11,5 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari - 2,0 %
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar - 2,1 %
- Sanoat tovarlari - 18,8 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 3,0 %
- Mineral yoqilq'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 22,6 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 7,2 %
- Mashinalar va transport asbob uskunalari - 31,5 %
- Xizmatlar - 1,3 %

FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI OYLIK DINAMIKASI (mln. AQSH dollari)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar-noyabr import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 765,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 10,4 mln. AQSh dollariga yetdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2020- yil yanvar-noyabr)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			MDH davlatlari			Boshqa davlatlari		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	Jami	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	Jami	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, %da
Jami import	776,3	101,7	100	388,1	124,5	100	388,2	86,0	100
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	89,6	138,8	11,5	72,4	154,7	18,7	17,2	96,7	4,4
Ichimliklar va tamaki	0,07	124,8	65,3	0,07	116,8	0,0	0,0	19,8	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15,4	43,6	2,0	13,4	40,9	3,5	1,6	96,4	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	175,6	250,6	22,6	175,0	2,2 m	45,1	0,6	135,7	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	16,5	2,1 p	2,1	16,5	2,1 m	4,3	0,01	126,3	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	56,2	94,4	7,2	15,8	90,9	4,1	40,5	95,9	10,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	145,8	74,0	18,8	84,5	68,0	21,8	61,3	84,2	15,8
Mashinalar va transport asbob-	244,6	82,5	31,5	8,1	90,9	2,1	236,5	82,2	60,9

uskunalari

Turli xil tayyor buyumlar	22,0	96,4	2,8	1,9	82,9	0,5	20,1	97,9	5,2
Xizmatlar	10,4	109,7	1,5	0,06	6,3	0,0	10,4	121,4	2,7

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg'i yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (45,1 %), sanoat mahsulotlari (21,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,7 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (60,9 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,4 %), hissasiga to'g'ri keladi.



IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar- noyabr, ulushi, % da)

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 6,1 % dan 11,5 % ga ko'paydi, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 33,0 % dan 22,6 % ga kamaydi.

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,1	8,5	11,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,4	4,6	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	33,0	9,2	22,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	1,0	2,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	6,0	8,5	8,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	22,9	25,3	17,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	24,4	38,8	31,5

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Turli xil tayyor buyumlar	2,7	2,9	2,7
Xizmatlar	0,8	1,2	1,3



**XSST BO'LIMI BO'YUCHA MAHSULOTLARI
IMPORTI TARKIBI
(2020 yil yanvar-noyabr)**

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	13,5	2,4 m
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	56,6	149,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1,9	32,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7,3	118,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,07	124,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och taxtalar	8,4	39,7
Tabiiy kauchuk	1,7	128,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	166,4	2,6 m
Ko'mir ,koks va briketlar	9,2	151,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	16,5	2,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	12,6	111,6
Birlamchi shakildagi plastmassalar	10,8	75,0
Boshqa joylarda tasniflanmagan kimyoviy materiallar	8,1	83,3
O'gitlar	6,8	149,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		

Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	34,9	69,7
Chuyan va po'lat	33,7	55,5
Metaldan tayyorlangan buyumlar	17,1	108,9
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	14,5	52,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	22,8	67,7
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblardan va ularning ehtiyot qismlari	15,2	122,7
Aniq sohalarda uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	111,6	77,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob uskunalar	77,8	113,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1,1	2,1 m
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari	10,5	90,5
Har xil tayyor buyumlar	3,7	84,5



MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLAR DINAMIKASI
(2020 – yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi, %da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida (32,4 %) ulushi bilani Qozog'iston Respublikasini (20,5 %) hamda Rossiya Federatsiyasini (19,5 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA HIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-noyabr)**


Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	271,4	251,5	138,9	92,3	1	1
Qozog'iston	101,9	159,3	58,1	156,3	3	2
Rossiya Federatsiyasi	138,7	151,2	68,2	109,0	2	3
Turkiya	38,0	30,9	189,7	81,5	5	4
Qirg'iziston Respublikasi	35,6	29,4	102,8	82,5	4	5
Turkmaniston	7,1	26,0	80,3	3,7 p	11	6
Koreya Respublikasi	24,8	19,5	106,4	78,7	6	7
Germaniya	22,8	16,9	94,2	74,4	7	8
Tojikiston	21,2	16,2	2,2 p	76,3	8	9
Niderlandiya	2,1	15,1	56,1	7,2 p	17	10
Italiya	4,3	7,9	77,3	183,4	13	11
Hindiston	3,1	7,3	25,1	2,3 p	12	12
Litva	9,6	5,5	2,0 p	57,9	10	13
Yaponiya	15,7	4,4	2,6 p	27,5	9	14
Avstriya	1,1	3,0	5,5 p	2,3 p	14	15
AQSH	3,4	3,0	49,9 p	86,3	19	16
Shveysariya	2,8	2,9	35,6	103,6	15	17
Eron	3,8	2,6	129,0	68,7	18	18
Belarus	2,8	2,3	112,5	81,8	16	19
Ukraina	4,3	2,3	101,7	53,3	20	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori beshtalikda o'zgarish kuzatilmadi.

**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ILUSHI
(2020-yil yanvar-noyabr)**

2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha Farg'ona viloyati tomonidan 64 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qirg'iziston Respublika Koreya va Tukmaniston) jami importning 86,0 %ini tashkil qiladi, bu 667,8 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Qozog'iston, Koreya, Rossiya, tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2020-yanvar-noyabr, ulushi, %da)

2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 10,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,3 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 1,8 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi savdo va texnik muhandislik xizmati (21,1 %) va boshqa xizmatlaridan (77,9 %) iborat bo'ldi.

**Savdo va texnik
muhandislik xizmati**
21,1 %



Boshqa xizmatlar
77,9 %



QURILISH MATERIALLARI IMPORTI

2020-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan 71,4 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 9,2 % ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog'och va yog'och mahsulotlari (31,9 %), shisha va shisha buyumlar (8,0 %), sement (35,0 %),

hamda asbest (3,0 %) asosiy ulushni egallagan.

2020-yil yanvar-noyabr yakunlariga ko'ra, 2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan pasayish (39,9 %) qayd etildi.



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.



QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, mln. AQSH dollari)

Qurilish materiallari	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	27,4	48,7	22,8
Shisha va shisha buyumlar	5,7	5,5	5,7
Sement	32,4	38,7	25,0
Asbest	10,6	5,5	2,1



Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi.
Tel.:(73)-249-87-18**